

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI  
O'RGATISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI**

**Umirboqiyeva Dinora Mirkomil qizi**

*Samarqand davlat chet tillari instituti ingliz tili 2 fakulteti Maktabgacha va  
boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**N.N.Zubaydova**

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda o'yinlarning ahamiyati xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** o'yin o'ynash, leksik o'yinlar, orfografik o'yinlar, grammatik o'yinlar, fonetik o'yinlar, og'zaki nutq, muloqot.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarni o'rganishga katta e'tibor berilib kelinmoqda. 2013-2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. Hozirgi kunda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga balki, turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Buning sababi chet tillarni o'rganish ilm- fan va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

Bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar sababi ular ma'lumotlarni ma'nosini emas ularni boricha yodlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik lozim. Aks holda bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Amerika mamlakatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga grammatik darslar o'tilmaydi. Shu sababli bolalarga ingliz tilini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish samarali usuldir.

O'yin bu qiziqarli mashg'ulotdir. O'yin o'ynash diqqatni oshiradi, bilimli va hozir javob bo'lishni oshiradi. O'yin o'ynash davomida bola yutishga, g'alaba qozonishga intiladi. Bu esa uni irodasini kuchli qiladi. Hozirjavoblliligini oshiradi. Aqlini charxlaydi. Ayniqsa ingliz tilida o'yin o'ynash tilni tez va osonroq o'rgatishga yordam beradi. Shu sababdan ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ingliz tilini o'yinlar bilan o'rgatish o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulot bo'lib tuyuladi. Bu o'quvchilar til materiallarini o'zlashtirishida mustahkamlashida eng yaxshi usuldir. Metodika o'yinni vaziyatli mashq deb talqin qiladi.

Til materiallarini qo'llashni faollashtirish malakalari uchun, obrazli rolli o'yinlar taqlid qilish o'yib turlari fonetik leksik grammatik orfografik o'yin turlari qo'llaniladi. Ushbu o'yin turlaridan bir nechtasini sanab o'tmoqchiman.

O'yin bu qiziqarli mashg'ulotdir. O'yin o'ynash diqqatni oshiradi, bilimli va hozirjavob bo'lishni oshiradi. O'yin o'ynash davomida bola yutishfa g'alaba qozonishga

intiladi. Bu esa uni irodasini kuchli qiladi. Hozirjavobliligini oshiradi. Aqlini charxlaydi. Ayniqsa ingliz tilida i'yin o'ynash tilni tez va osonroq o'rgatishga yordam beradi. Shu sababdan ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ingliz tilini o'yinlar bilan o'rgatish o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulot bo'lib tuyuladi. O'quvchilar til materiallarini o'zlashtirishida mustahkamlashida eng yaxshi usuldir. Metodika o'yinni vaziyatli mashq deb talqin qiladi.

Til materiallarini qo'llashni faollashtirish malakalari uchun, obrazli rolli o'yinlar taqlid qilish o'yib turlari fonetik leksik grammatik orfografik o'yin turlari qo'llaniladi. Ushbu o'yin turlaridan bir nechtasini sanab o'tmoqchiman.

Fonetik o'yinlar. Ushbu o'yinlar bolani talaffuzini yaxshilash, harflarni tog'ri talaffuz qilishga yordam beradi. Masalan o'qituvchi doskaga biror bir harfni yozadi. Masalan "r" harfi. Kim ushbu harfni birinchi bo'lib to'g'ri va ravon talaffuz qilsa o'sha o'quvchi yutadi. Yoki she'r aytirish ham to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi.

Orfografik o'yinlar. Bu o'yin bolalarga so'zlarni tog'ri yozishni o'rgatadi. Masalan o'qituvchi doskaga magnitli harflarni aralashtirib joylaydi. O'quvchilardan ushbu harfdan tezda bitta so'z yasash so'raladi. Masalan "school" so'zini yasah buyuriladi. Qaysi o'quvchi so'zni tez va tog'ri yasasha u g'olib bo'ladi.

Leksik o'yinlar. Ushbu o'yinlar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchi doskaga 3 ta o'quvchini chiqaradi va 2 daqiqa vaqt beriladi ushbu vaqt ichida kim ko'p tez yoza olsa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Grammatik o'yinlar. Ushbu o'yinda o'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Ushbu kartochkalarga gaplar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu gaplarda qo'llanilgan a, an, the artikllarini qo'llanilishini izohlab berishi kerak bo'ladi. Grammatik o'yinlar o'quvchilarni grammatik savodxonligini oshirishga beradi.

Ushbu o'yinlar yaxshi samara berishi uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanish rasm, kartochkalardan foydalanish lozim. O'qituvchi bolalarga birdek e'tibor berishi lozim. Qolaversa o'qituvchi bolalarni rag'batlantirishni bilishi lozim. G'olib o'quvchilarga rag'bat kartochkalari berilishi kerak. O'qituvchi o'yin davomida barcha o'quvchilarga birdek qatnashishini ta'minlashi lozim.

O'quvchilar orasida uyalchang, tortinchoq o'quvchilarni ham birdek qatnashishini ta'minlash hamda ulardagi faollikni oshirishga harakat qilish lozim. O'quvchi diqqatli bo'lishi, o'yin davomida o'quvchilarning g'irromlikka bahslashib ketishga yo'l qo'ymaslik lozim. Aksincha o'qituvchi ularni birdamlikka o'rgatishi lozim.

Xulosa qilib aytganda o'yinlar dars jarayonini qiziq o'tishini ta'minlaydi. O'quvchi o'yinni ko'ngilochar mashg'ulot deb qabul qiladi va o'yin jarayonida zerikmaydi. O'quvchilar o'yinga qiziqib ketadi va shu yordamida ingliz tilini tezroq va osonroq o'rganadi. O'yin nafaqat bilimni oshiradi balki, o'quvchilarni bir birlari bilan hamfikir bo'lishga, do'stona munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bolalar O'yin davomida bir birlari bilan doimiy aloqada bo'ladilar, bu esa ulardagi og'zaki nutqni rivojlantiradi. O'yin o'quvchilardagi faollikni, o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. J.Jalolov.Chet Tili Metodikasi Toshkent 2012.
2. С.А Миронова Просвещение.М.:1990
3. Аюрова М.Юу.Арипова Sh.D To'g'ri Talaffuz qilamiz va yozamiz.Methodik qo'llanma.T.:O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati 2015
4. <http://4.www.google.uz>
5. <https://english-puzzle.com>

